



## The science of ijaz in the work of Abu Ya'qub Yusuf Sakkoki "Miftohu-l ulum"

Bobur ISMAILOV<sup>1</sup>

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

#### Keywords:

puberty science,  
semantic section,  
ijjaz, iyjazi kasr,  
iyjazi hazf,  
mediated and unmediated  
ijjaz.

### ABSTRACT

Yusuf Sakkoki's work *Miftohu-l-ulum* (The Key to Knowledge) encompasses essential knowledge in language and literature, covering topics such as phonetics, morphology, syntax, semantics, description, art, logic, poetry, rhyme, and aruz (a classical system of Arabic prosody). The book provides comprehensive explanations, ranging from the formation of letters and phonetics to word structure, sentence composition, and the appropriate use of language according to different contexts. It also discusses how to embellish sentences with artistic elements. The third main section of the work focuses on the science of rhetoric, encompassing semantic, artistic, and descriptive disciplines. In the study of semantics, it addresses topics such as declarative and imperative sentences, possessive and participle forms, the functional roles of verbs, and specific details related to omission, interconnection, reduction, extension, and limitation. This article specifically analyzes the chapter on *ijaz* (brevity), exploring its various types and styles.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp219-223>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Abu Ya'qub Yusuf Sakkokiyning “Miftohu-l-ulum” asarida iyjoz ilmi

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

balog'at ilmi,  
ma'oniy bo'limi,  
iyjoz, iyjozi qasr,  
iyjozi hazf,  
vositali va vositasiz iyjoz.

Yusuf Sakkokiyning “*Miftohu-l-ulum* (ilmlar kaliti)” asari fonetika, morfologiya, sintaksis, ma'oniy, bayon, bade', mantiq, she'r, qofiya, aruz kabi til va adabiyotga oid eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Asarda harflar va ularning hosil bo'lish o'rinlaridan tortib, so'zlar tuzilishi, jumalarning xatosiz tuzilishi va ularni holatga va o'ringa moslab gapirish usullari,

<sup>1</sup> Doctoral student, Faculty of Uzbek Philology, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

jumlalarni badiiy san'atlar bilan bezash kabilar tushuntiriladi. Asarning uchinchi asosiy bo'limi balog'at haqida bo'lib, unda ma'oniylar, badi' va bayon ilmlaridan iborat. Ma'oniylar ilmidagi, xabariy va inshoiy jummlalar, ega, kesim, fe'lning vazifadosh shakllari va ularning zikr qilish o'rinlari, tark qilish o'rinlari, o'zaro bog'lanish o'rinlari, qisqartirish, cho'zish, chegaralash o'rinlariga oid tafsilotlar bayon etilgan. Shulardan biri ijyoz bobi bo'lib, ushbu maqolada uning turlari, uslublarini tahlil etiladi.

## Наука иджазы в «Мифтоху-л улум» Абу Якуба Юсуфа Саккоки

### Ключевые слова:

наука о половом созревании, семантический раздел, ийджаз, ийджазы каср, ийджазы хазф, опосредованный и неопосредованный ийджаз.

### АННОТАЦИЯ

Труд Юсуфа Саккоки «Мифтоху-л-улум» («Ключ к знаниям») охватывает важнейшие знания в области языка и литературы, включая фонетику, морфологию, синтаксис, семантику, искусство, логику, поэзию, рифму и аруз. В произведении подробно объясняются такие аспекты, как звуки и их образование, строение слов, правильное построение предложений и способы их использования в зависимости от ситуации и контекста, а также художественное оформление речи. Третий основной раздел труда посвящен взрослой жизни и включает науки, связанные со смыслом, художественным выражением и описанием. В разделе, посвященном семантике, рассматриваются информативные и сочинительные предложения, притяжательные и причастные формы глаголов, их функции и способы употребления, а также различные случаи опущения, соединения, сокращения, расширения и ограничения выражений. Важное место занимает глава о риторическом приеме иджазы, его видах и стилях, анализ которых представлен в данной статье.

Yusuf Sakkoiiy ijyoz haqida quyidagilarni aytadi: "Ijyoz o'rta saviyadagi odamlar odatiga ko'ra kamroq ibora bilan maqsadni ifodalash demakdir. Odatdagi deganda o'rta saviyali kishilarning bir-birlariga maqsadlarini bildirish chog'ida o'tadigan suhbatlarini ijyoz yo itnob ekanligini aniqlashda mezon sifatida qabul qilish holatini tushunamiz. Buyerda ozmi ko'pmi, gap haqidami yoki boshqa narsa haqidami farqi yo'q. Jummlarni qisqa yoki uzun qilish usullari bilan bog'liq".

Misol, ijyoz ilmidagi eng mashhur misol, **sizlar uchun qasosda hayot bor** (Baqara:179) oyati karimasidir. Ushbu oyati karima juda o'rinli va betakror, unda juda fazilatli va nozik nuktalar bor. Ushbu ma'no haqida aytilgan gaplarning eng qisqasi **الْقَتْلُ أَنْفِي الْقَتْلُ** – o'ldirish o'ldirishni daf qiluvchidir. (o'limni to'xtatishning eng yaxshi yo'li o'ldirishdir). Agar har bir inson boshqa birovni o'ldirsa qasosiga o'zining ham o'ldirilishini bilib hechkimni o'ldirmaydi. Qasos borligi insonni o'ylab ish qilishga majbur qiladi. Bunda ham o'ldirmoqchi bo'lgan ham o'lishi kerak bo'lgan inson tirik qoladi. Har bir jamiyatda jinoyatga qarshi jazoning borligi jinoyatlarning oldini olib turadi. **فِي الْقِصَاصِ**

الْقَتْلُ **“sizlar uchun qasosda hayot bor”** oyati nozil bo'lishdan oldin arablarning **حَيَاةٌ وَلَكُمْ** o'ldirish o'ldirishni daf qiluvchidir maqoli bor edi va ular bu oyat kabi bizdayam maqolimiz bor deb maqtanib yurardi. Lekin oyatning bu maqoldan ustunliklari juda ko'p Qazviniiy “talxisu-l-miftah” asarida uning ba'zilarini keltirib o'tadi:

1) oyatdagi harflar soni maqolning harflaridan kamroq ya'ni ijjozda so'zlar va harflarning kamligi uning ustunligini ifodalaydi

2) oyatda maqsad aniq aytilgan ya'ni hayot so'zi keltirilib hayotni saqlab qolish aytilgan maqolda esa hayot so'zi yo'q

3) Oyatda “hayot” so'zi noaniq holatda “al” aniqlik artiklisiz qo'llangan va bu arab tili grammatika qoidasiga asosan buyuklikni bildiradi ya'ni qasosda buyuk hayot bor degani. Bitta odam sababli jamoatni qatl qilishdan yoki jamoalar o'rtasidagi qatlarni man qilgani uchun. Ya'ni johiliyat davrida biror kishi biror kishi o'ldirsa uning qabilasi borib o'ldirgan insonniyam uning qarindoshlariniyam o'ldirishardi natijada ko'plar qurbon bo'lardi shuning uchun hayot buyuk hayot deyishga asos bo'ladi. Oyatga binoan buyuk o'limning o'rnini buyuk hayot egalladi. Arablarning maqolida esa buyuklik ma'nosi yo'q

4) Oyatda kelgan “qasos” faqat jinoyat uchun ishlatiladi, ya'ni birov birovni o'ldirsa bo'ladigan holat, maqoldagi “qatl” so'zi esa har qanday o'lim, boshqa tasodiflar tufayli bo'ladigan o'limlarni ham anglatadi.

5) Oyatdagi so'zlarda takror yo'q, maqolda esa “qatl” so'zi takror qo'llangan.

6) maqolda ba'zi so'zlar hazf qilingan ya'ni “maqol aslida : adolatli qatl zulmiy qatlni man etadi bo'lgan” ijjozda hazf qilishlik jumlaning qiymatini tushiradi.

7) oyatda “qisos va hayot” so'zlari o'zaro bir-biriga zid so'zlar, maqolda bir-biriga zid so'zlar yo'q.

**Bor qiluvchi** – فَتَوْبُوا إِلَىٰ بَارِئِكُمْ فَاقْتُلُوا أَنْفُسَكُمْ ذَلِكُمْ خَيْرٌ لَّكُمْ عِنْدَ بَارِئِكُمْ فَتَابَ عَلَيْكُمْ **Bor qiluvchi zotga tavba qiling o'zingizni o'ldiring manashu sizlar uchun Yo'qdan bor qiluvchi Zot nazdida yaxshiroqdir. Bas tavgangizni qabul qildi.**(Baqara:54). Bu oyatda buzoqqa sig'inib o'zingizga zulm qilgan bo'lsangiz endi Yo'qdan bor qiluvchi Zot bo'lgan Allohga tavba qiling va bir-biringizni o'ldiring va bu ya'ni o'zingizni o'zingiz o'ldirishingiz siz uchun yaxshidir. Bas Sizlar bir-birigizni o'ldirib Allohning farmonini bajarganingizdan so'ng Alloh tavgangizni qabul qildi degan ma'no bor. Bu oyatdagi فَتَابَ عَلَيْكُمْ “tavgangizni qabul qildi” jumlasining boshidagi “fa” harfi “fay-i fasiha” ga e'tibor berilsa, bu harf “bu amrga itoat qilding natijada Alloh tavgangni qabul etdi” ma'nosini go'zal tarzda ifoda etgan. Bu harfining “fa-i fasiha” deyilishining sababi, hazf (tushirib qoldirilgan) jumla (bu amrga itoat qilding) ni izhor etib, ochib bergani va go'zal ma'no ifodalaganligidir.

**Iyjozi ixtisor.** Ixtisor so'zi lug'atda “qisqa” ma'nosini ifodalaydi. Sakkokiy uni ijjoz ilmining bir turi deydi. Jurjoniy ham: “Ixtisor ijjozning bir turi bo'lib, ijjoz ixtisardan ko'ra kengroq ma'no efoda etadi. Iyjoz ham hazf, ham maqsadni ifoda etuvchi eng kam so'zlar bilan yasalishi mumkin bo'lsa, ixtisorda faqat hazf bilan bo'ladi” deydi.

Misol, فَكُلُوا مِمَّا غَنِمْتُمْ حَلَالًا طَيِّبًا – **o'lja qilib olgan narsalaringizni halol pok holda yeyaveringlar**(Anfol:69). Ushbu oyatda “bundan buyon men sizlarga o'ljani halol qildim” jumlasini hazf qilingan bunga فَكُلُوا-fe'lining boshidagi “fa-i sababiyya” dalolat qilmoqda. Arab tili grammatik qoidasiga ko'ra “fa-i sababiyya” o'zidan oldin jumla borligiga dalolat qiladi va o'zi qatnashgan jumla o'sha jumlaning javobi ekanini ifodalaydi.

Misol, إِذْ يَقُولُ أَفْلَاهُمْ أَيُّهُمْ يَكْفُلُ مَرْيَمَ – **Maryamga kafil bo'lishni bilish uchun qalamlarini tashlaganlarida (ularning oldida emasding, va talashib-tartishganlarida ham ularning oldida emasding)**(Oli Imron:44). “Aslida, ular

qalamlarini otganlarida qaysi biri maramga kafil bo'lishini bilish uchun qaradilar" shaklidir. Nahv qoidasiga ko'ra bunga أَيُّهُمْ so'zi dalolat qiladi. Bu yerda ma'noga mos keladigan fe'l "bilmoq-علم" fe'lidir. Chunki qalamlarini tashlashdan maqsadlari kimning Maramga kafil bo'lishini bilishdir. Bu holatda إِذْ يُلْقُونَ أَقْلَامَهُمْ أَيُّهُمْ لِيَعْلَمُوا يَكْفُلُ مَرِيَمَ shaklida bo'ladi.

Shuningdek arablar ismi mavsulning silasini iyjoz uchun qo'llamaslikni afzal ko'rganlar. جاء بعد الذي و التيا "Ko'p buyuk mashaqqatlardan keyin kela oldi" deyilar. Bu ularning iyjoz uslubini afzal ko'rishi bilan bog'liq. Shunga o'xshash التيا , الذي -bilan ishorat etilgan narsani, ya'ni musibatni shunday bir narsa ekaniga e'tibor qaratmoqchi bo'ldi. U shunday musibatki unga diqqat qilishni xohlamaydilar.

**Iyjozi qisar.** Sakkokiyning o'ziga xos xususiyati, u ta'rif keltirib o'tirmasdan, birdan misollar keltirishga o'tadi va ko'plab misollar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Misol, إِنَّ الَّذِينَ كَفَرُوا بِعَدِّ إِمَاتِهِمْ ثُمَّ إِذَا دُأُوا كَفَرُوا لَنْ تَقْبَلَ تَوْبَتِهِمْ – "Albatta imyon keltirganlaridan keyin kofir bo'lgan, so'ngra kufrlari yanada ziyoda bo'lgan kimsalarning qilgan tavbalari hargiz qabul qilinmaydi" (Oli Imron:90). Bu jumlaning asli, "ular hech qachon tavba qilmaydilar va shuning uchun tavbani qabul qilish degan narsa bo'lmaydi" shaklidir. Shuningdek Agar tavba qilsa uni o'z hikmati bilan qabul qilishi lozim, lekin ular tavba qilish mumkin bo'lmagani uchun tavbasini qabul qilmaydi deyilgan.

Misol, بِمَا أَشْرَكُوا بِاللَّهِ مَا لَمْ يُنَزَّلْ بِهِ سُلْطَانًا – (iloh ekaniga) **Hechqanday hujjat-dalil kelmagan narsani Allohga sherik qilganlari sababli (kofirlarning dillariga qo'rquv solajakmiz)** (Oli Imron:151). "Ya'ni aslida ham mavjud emas. Allohga sherik qilgan narsasiga hujjati ham yo'q" demoqchi. Bu holda mavjudligi ham isboti ham rad etiladi. (Allohnin butlarning sherik ekanini inkor qilish bilan haqiqiy holat, ya'ni ularning mavjudligi inkor qilinadi).

**Vositali va vasitasiz iyjozlar.** Misol, وَآخَرُونَ اعْتَرَفُوا بِذُنُوبِهِمْ خَلَطُوا عَمَلًا صَالِحًا وَآخَرَ سَيِّئًا ana boshqa bir kishilar borki, gunohlarini e'tirof qilurlar. Ular yaxshi amalini boshqa yomon amalga almashtirib yuborganlar (Shoyad Alloh ularning tavbasini qabul qilsa) (tavba:102). Jumlaning asli "yaxshi ishni yomoniga va yomon ishni yaxshisiga almashtirdilar" ma'nosidadir. Chunki aralashish aralashgan narsani ham, unga arashlashtirilgan boshqa narsani ham talab qiladi. Ya'ni "bazan itoat qiladi, lekin amalini katta gunoh bilan ketkazadi va goho gunoh qiladi va uni tavba bilan tuzatadi" shaklida bo'ladi.

Misol, قُلْ لِلَّذِينَ كَفَرُوا إِنْ يَنْتَهُوا يُغْفَرْ لَهُمْ مَا قَدْ سَلَفَ – (Ey Muhammad alayhis-salom) **kofir bo'lgan kimsalarga aytingki, agar ular to'xtatsalar o'tgan gunohlari mag'firat qilinur** (Anfol:38). Jumlaning asli, "sizga aytgan gapimni ularga ayt, agar to'xtasalar, mag'firat qilinadi" shaklida bo'ladi.

Misol, قُلْ لِلَّذِينَ كَفَرُوا سَتُغْلَبُونَ – kofir bo'lgan kimsalarga: "mag'lub bo'lasizlar deb ayting" (Oli Imron:38). Ushbu oyati karimada سَتُغْلَبُونَ – "mag'lub bo'lasizlar" degan fe'ldagi "t" ni "y" qilib o'qishlik yuqoridagi misol kabi bo'ladi. Ya'ni "sizga aytgan gapimni ularga ayt, mag'lub bo'ladilar" shaklida bo'ladi. Bu holatda sizga aytgan gapimni jumlasini hazf bo'lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ан-Найм –ул-кабир. Арабча-ўзбекча луғат-Н.: Наманган нашриёти, 2014. – Б.805.
2. Аҳмад Тарозий. Фуну-л-балоға. Т.: Хази́на, 1996.-Б.212

3. Зиёвуддинова М. Юсуф ас-Саккокий ва унинг “Мифтоху-л-улум” асари шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. –Т.: ТошДШИ,2005. –Б.179

4.Салимахон Рустамий. “Балоғат илмида лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларининг ёритилиши монографияси”.-Т.: “Наврўз” нашриёти, 2017. Б.170

5. Шайх Алоуддин Мансур. Қуръони Азим мухтасар тафсири. -Т.: “Шарқ”, 2019, -Б. 981

6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. –Т.: Ҳилонашр Нашриёти, 2021. Б.637

621 ابو يعقوب سوسف السكاكى. مفتاح العلوم. دار الكتب العلمية. بيروت. 1987. ص. 7.

188 ابو يعقوب سوسف السكاكى. مخطوطة مفتاح العلوم. مكتبة جامعة اسطنبول. ص. 8.

http://www.shamela/ws, ابو الفيض المقلب بمرتضى البيدى . تاج العروس من ج 9 .

10. ابو الحسن علي بن احمد الشريف جرجاني. مطبع دار الكتب العلمية-بيروت. لبنان. ص. 197.

11. حفني ناصف-محمد دياب-سلطان محمد-مصطفى تميم. دروس البلاغة-شموس البراعة. مكتبة

البشري. كراستي باكستان. 2009. ص. 153.

152. تلخيص المفتاح. محمد بن عبد الرحمان القزويني. 2010. ص 12.

179 شرح مفتاح العلوم. سعد الدين مسعود ابن عمر التفتازاني. 5628 رقم. ص . 14.

160. شرح تلخيص مفتاح. الشريف الجرجاني. 6061 رقم. ص 15.